

BOLALAR FOLKLORLIGI, XALQ QO'SHIQLARI VA XALQ O'YINLARINI BOLALAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Arobova Shohsanam Akram qizi

Andijon shahar 7-umumta'lim maktabi psixolog va boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Anostatsiya: ushbu ilmiy maqolada: boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan: bolalar folklorligi, xalq qo'shiqlari va xalq o'yinlarini bolalar hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, bolalar, xalq, xalq o'yinlar, xalq qo'shiqlari, harakat, o'yinlar, qo'shiqlar, o'qituvchi, o'quvchi.

Bolalar folklori — og'zaki ijod namunalari. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy qismi. O'zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalamaga, masxaralama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932-yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachoq va erkalamalar onalar mehr-muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atakchechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toyttoy", "Bordibordi" va boshqa ovutmachoqlar aytildi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. "Bu bog'chada olicha", "Zuvzuv borag'on", "Chamandagul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xattiharakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chambar", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi. Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniładi.

Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan. Bolalar qo'shiqlari hilma-hildir vatan, ona, hayvonlar, qushlar, hashoratlar, narsa-buyum, mehnat va hokazalar haqida bo'ladi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida albatta alohida bolalar uchun xalq qo'shiqlari berilgan. Masalan: 2-sinf 2-qism "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida bolalar qo'shiqlari berilgan, ushbu qo'shiq o'quvchini teran fikrlashga, nutqini rivojlantirishga ruhiyatini ko'tarishga hizmat qiladi.

Bolalar qo'shiqlar asosan ko'pi birgalikda aytildi. Masalan: 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida "Jo'jalarim" qo'shig'i

- Chip-chip jo'jalarim,
- Chip-chip-chip jo'jalarim.
- Mening jajji jo'jalarim,
- Turli-tuman jo'jalarim.
- Keling, sizga suv beraman,

Mazkur qo'shiqning tarbiyaviy ahamiyati: qushlarga parandalarga mehribon bo'lish, ularga doimo ozuqasi va suvini vaqtida berishligi ta'kidlab ketilgan.

O'qituvchi o'quvchilarga bu qo'shiqdan so'ng quyidagi savollar bilan yuzlanishi mumkin:

1. "Bolajonlar kim uyda tovuq, o'rdak yoki g'oz boqadi?".
2. "Jo'jalar qanday tovush chiqaradi?"
3. "Nima uchun suv,don beraman deyapti?"
4. "Jo'jalarga nimalar bilan oziqlanadi?"
5. "Jo'jalarning qanday ranglari bor?"

Qo'shiq: (Aytishuv qo'shiq "ona va qiz aytishuvi")

- Oyijon, oyijon-a
- Quloqqinam og'ridi-ya.
- Quloqqinangdan oying o'rgilsin
- Nimalarga og'ridi-ya.
- Do'konlarda bo'lar emish,
- Bozorlarda sotar emish.
- Ana uning tilla zirak,
- O'shangan og'ridi-ya.
- O'shangan og'risa-yo, alam-o, alam.

O'qituvchi ushbu qo'shiqni o'quvchilarga o'rgatar ekan: mazkur qo'shiqni r o'quvchilar o'zlarini rollarga bo'lib o'qitishish metodini taklif etgan

bo'lar edim. maqsadga muvofiq bo'ladi. Hamda o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarni berishi mumkin:

1. Zirak va bilaguzuk qayerda sotar ekan?
2. Zirak va bilaguzuklar qanday rangda bo'ladi?
3. Zirak va bilaguzukni kimlar taqadilar?

Shu kabi savollar berishimiz mumkin. Hamda qo'shiqni izohlab ketish kerak, chunki zirak va bilaguzukni buvilarimiz, onalarimiz, opa-singillarimiz va qizlar taqishini o'quvchilarga aytib o'tishimiz kerak bo'ladi. Qo'shiqda qiz – onasiga erkalanib, zirak, bilakuzuk olib bering deyapti. Onasi hazil-mutoyiba qilib erkalab alam-o alam deb qo'yayapti. Lekin onasi albatta yonida pul bo'lsa olib berardi, chunki onalarimiz o'zлari kiymasa ham bolalarimiz kiysisin deydi. O'zлari yemasa ham bolalarimiz yesin, farzandim hech kimdan kam bo'lmasin yaxshi o'qisin deb barcha narsani muhayyo qiladilar. Ularni doimo qadriga yetishimiz kerak.

4-sinf "O'qish kitobida", "Xalq og'zaki ijodi" bo'limi bor. Unda xalq qo'shiqlardan o'quvchi yosh xususiyatiga mos qo'shiqlar berilgan. Masalan: "Boychechak", "Xo'p hayda" qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Boychechak qo'shig'ini o'quvchilarga tushuntirayotganimizda birinchi navbatda qo'shiqni barcha o'quvchilar bilan birgalikda kuylanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan yuzlanib qo'shiqni mazmuni tushuntirib mustahkamlab olishi mumkin. Demak:

1. Boychechak qaysi faslda chiqadi?
2. Boychechak guli qanday rangda bo'ladi?
3. Boychechak nima uchun qattiq yerdan dumalab chiqadi?
4. Boychechakni nimaga "Bahor elchisi" deb atalishini sababini izohlab bering? kabi savollar shular jumlasidandir.

4-sinf o'qish darsligi xalq qo'shig'idan na'muna sifatida "Xo'p hayda" qo'shig'i berilgan:....

Zamon taraqqiy etgan sayin zamonaviy uskunalar, tehnikalar yaratilib boradi. Hozirda "Xo'p hayda" xalq og'zaki ijodi qo'shig'i yo'qolish arafasida turibdi, deyarli hech qaysi viloyatimizda Xirmon yig'ishtirayotganda aytilmayapti, chunki kombayn, traktor va ko'plab hirmon yig'ishtirishga va maydalashga mo'ljallangan tehnikalar yaratilgan. Alla-bu onalar tomonidan farzandlarni uxlatish uchun aytildigan, jonli mehrli qo'shiqdir. Uning mazmun-mohiyatida farzandini kamolini ko'rish, erkalash, ishora mehr, orzu, umid ishonch sehrli kuch yotadi.

Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish "Alla" toborora yuksaltirib har bir boshlang'ich sinf darsliklarida joriy etishni taklif qilgan bo'lar edim. O'zbeklar aytadigan allada onaning orzusi, komil inson haqidagi o'ylari qo'shib

kuylanadi. Onalar farzandi dunyodagi eng yaxshi inson bo'lishini tilab alla aytadi.

1. Alla qanday qo'shiq?
2. Alla kim uchun kuylanadi?
3. Ona allasida nimalar ifodalanadi?
4. Ona bolasi uchun ollohdan nimalar so'rashi mumkin?

Kimni chaqaloq ukasi yoki singlisi bor, onangiz ularga alla aytganda tinglab eshitasizmi? degan savollar bilan o'quvchilarga yuzlanishimiz mumkin. «Xalq ommasi bag'rida kechayotgan bolalar turmushining alohida nuqtalari bor, — deb yozgan edi rus folklorshunosi G.Vinogradov. — Bolalar o'zlarini ayrim ajratilgan alohida olam sifatida anglashadi va yashashadi. Kattalar ishtirokisiz ham o'yin o'ynay bilishadi, o'ynab turib o'rganadi, bevosita kattalardan emas, o'z akasidan ular merosini o'zlashtiradiraqsni o'rganadi — yana o'sha kattalardan emas, ko'pincha ulardan olamshumul sir tutgan holda shu tariqa atrofhi o'ragan muhitni anglash har gal ham kattalar ta'siri va rahbarligida kechavermaydi». Shunga qaramay, bolalar faoliyatida taqlidchilikning yetakchi tamoyilligi rad etib bo'lmash haqiqatdir.

Har bir taqlidiy harakat ulaming o'yinlarida turmushning qay bir qirrasini aks ettiruvchi ma'no kasb eta boradi. Chelakchasida suv tashiganida, loydan uycha qurbanida tuproqdan xirmon uyanida bolakay shunchaki o'ynamaydi, kattalarga taqlid qila turib mehnat qilgan bo'ladi. Bu shunchaki taqlidiy mehnat emas, balki unga xos jarayonlami o'zlashtirish, mehnatning mohiyatini idrok etishdan iborat hayot sabog'idir. U hayotni o'ynab turib o'zlashtiradi, o'ynab turib ijodiy salohiyatini shakllantiradi va toblaydi, o'ynab turib buniyodkorlikni o'rganadi va kelajakning buniyodkori bo'lib yetishadi. Binobarin, o'yin — bolalar uchun hayotni o'rganish va o'zlashtirish alifbosi, donolar iborasi bilan aytganda, «har qanday bilimning alifbosi, ular fan va bilimdonlikning birinchi darajali buyuk pillapoyalari» hisoblanadi. Bolalar o'ynab turib yashashadi, bu shunday hayotki, bolalarning ham vujudini chiniqtiradi, ham ongini shakllantiradi va o'stiradi. Olamni anglash va o'zlashtirish mashqlaridan tarkib topgan bunday hayot - bolalar uchun jiddiy mashg'ulot ham. O'yinlarning xalq tarixiy qismati, olis o'tmishta xos turmush tarzi, urf-odatlari zuhur topgan. Bola o'yin jarayonida ajdodlarining ana shu tarixidan voqif bo'ladi, bunday voqiflik zamirida esa vatanni anglash, unga mehr bilan qarash hissi uyg'onadi, o'zligini anglashga yo'1 ocha boradi. Hozirgi davrda xalq o'yinlar yo'qolib borayapti, chunki bolalarimiz zamonaviy roboteknikaga boy o'yinchoqlarga boylanib qoldi. Masalan shaharda yashovchi aksariyat bolalar xalq o'yinlarini o'ynamadilar. Faqat qishloqlarda, yoki tog'li tumanlarda xalq o'yinlari o'ynaladi.

Masalan yo'qolib borayotgan milliy o'yinlarimizdan qizlar o'yini 5 tosh, o'g'il bolalar o'yini lanka shular jumlasidandir.

Xalq harakatli o'yinlari 3 xil bo'ladi:

- 1.Sof harakatdan iborat o'yinlar.
2. Harakatni predmet boshqaradigan o'yinlar.
3. Harakat so'zi boshqaradigan o'yinlar.

1. Sof harakatdan iborat o'yinlar. Bularni taqlidiy o'yinlar ham deyish mumkin, chunki harakat taqlid asosida yuzaga keladi. », «Bekinmachoq», «Yashirinmachoq», «Duk-duk», «Quvlashmachoq», «Shax-shax» va boshqa juda ko'p shu xildagi o'yinlarda harakat u yo bu hodisaga taqlid zamirida voqelikka aylangan.

2. Harakatni predmet boshqaradigan o'yinlar. Bular kichik hamda o'rta yoshdagi bolalar hamda o'smirlarga mos bo'lib, ulardagi harakatni tuproq, toshcha, tanga, loy, oshiq, danak, yong'oq, ro'mol, chillak va chillakdasta, jirttak, lanka, to'p, koptok, qo'g'irchoq, turli-tuman o'yinchoqlar yuzaga keltiradi. Bu turdagи o'yinlarda narsa (o'yinchoq) harakatni yuzaga keltiradi va boshqaradi. Shunisi muhimki, o'tmishda bu o'yinchoqlarning aksariyatini bolalarning o'zları yasashgan, tikkан, xullas, tayyorlashgan. Bu ham bolalarda ijodkorlik malakasini shakllantirishga xizmat qilgan, pirovard-oqibatda esa yo'qni yo'ndirib bo'lsa-da, o'yinni tashkil etuvchi topqirlilikka o'rgatgan. Qizlar qo'g'irchoq yasamoqchi bo'lishsa, bir tugma, ozgina ip va matoh, ikkita cho'pchak topishsa bo'ladi, o'zları uni tayyorlayverishgan. Toychoq mingisi kelgan bolakay uchun uzun novda topilsa — yetarli sanalgan. Suv va tuproq bor joyda istagancha loy o'yinchoqlami tayyorlay olganlar. To'pchiqqa ehtiyoj sezganlarida tullagan sigir junini olib, kaftlariga hovuchlab, ozgina suv sepib ho'llab ishqalasalar bo'ladi — jun to'pchiq tayyor! Xullas, o'yin taqozo etgan istalgan vaziyatdan bolalar ana shunday topqirlik va sinchkov ijod yoki ixtirolari tufayli chiqqa olganlar. Afsuski, 50-60-yillardan boshlab tayyor «madaniy o'yinchoqlarga ruju qo'yish bolalarda ana shunday topqirlik va ijodkorlik ruhini birmuncha zaiflashtirdi. O'g'il bolalarning topgani — tayyor futbol, qizaloqlarning topgani «mama» deguvchi tayyor qo'g'irchoqqa aylandi. O'zbek milliy o'yinchoqlar vositasida xalqimizga xos milliylikni anglab yetishlariga monelik yuzaga keldi. Endilikda zudlik bilan ana shu kemptiklikka barham berish milliy istiqolimiz taqozo etayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda milliy o'yinlarni bolalar ongiga sindirish va qayta tiklash maqsadida 1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida "Lanka" milliy o'yinchoqni yasash haqida ma'lumot berilgan. XXI asr kelib tehnologiya asriga tobe bo'lib, qoldik hozirda bolalarimiz telefondagи o'yinlar quliga

aylandi-qoldi. Ijodkorlik qobilyatini esa jonsiz telefondagι o'yinga almashtirmoqda.

3.Harakat so'zi boshqaradigan o'yinlar. Bunday o'yinlar kompozitsiyasida qo'shiq harakatni yuzaga keltirishi va boshqarishi bilan muhim uzvga aylangan, aniqrog'i, qo'shiq yo ular kompozitsiyasining asosini tashkil etadi, yo o'yin yo'nali shida biror vazifani bajaradi. Binobarin, bunday o'yinlarga shunchaki o'yin sifatida emas, o'yin-qo'shiqlar sifatida qarash to'g'riroqdir. «Olmacha do'm-do'm», «Osmondagι oy» o'yinlari uchun dehqonning o'zi yetishtirgan olmani sotishga bolalar taqlidi asosga aylangan bolsa, «Bog'lam-bog'lam», «Guldur-gup», «Chilliktoy», «Qo'rg'on olish», «Boylandi» o'yinlari uchun chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar faoliyatiga taqlid qilish o'yinning zamini hisoblangan. Bu o'yinlaming muhim xususiyati shundaki, ular «Oq terakmi, ko'k terak?» singari qarama-qarshi taraflarga bo'linmagan holda o'ynalsa-da, poetik dialog o'yinga xos harakat mantiqiga omuxtalashgan bo'ladi.

«Oq terakmi, ko'k terak?» o'yin-qo'shiqni ko'zdan kechiraylik. Bu o'yin-qo'shiq bolalar repertuarida uzoq zamonlardan beri o'ynalib kelinadi. Bu jihatdan er-xotin "V va M.Nalivkinlar" bergan ma'lumot alohida qimmatga ega. Ana shu ma'lumotga ko'ra, bundan yuz yilcha ilgari ham bu o'yinni bolalar o'ynaganlar va uning ijro tartibi quyidagicha bo'lgan: «Bolalar ikkita teng guruhga bo'linganlar. Guruhlarning har biri o'zaro qo'lma-qo'l ushlashib, o'zicha saf hosil qilishadi; ikkala saf ham yuzma-yuz turishadi. Bir safdagilar ikkinchi safdagilardan jo'r bo'lib so'rashadi:

Oq terakmi, ko'k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Kimnidir so'rashadi. So'rashgan qarshi safhi yorib o'tish niyatida unga chopib borib tashlanadi; agar u yorib o'tolsa, unda o'sha safdagilardan birini yetaklab borib o'z safiga qo'shadi, aks holatda esa o'zi o'sha safda qoladi va o'yin davom etaveradi». «Ona tili o'qish savodxonligi» 1-sinf 1-qism darsligida ham, shu o'yin yoritib ketgan, hamda «Oq terakmi – ko'k terak» o'yinidan parcha keltirilgan. Sababi shundaki o'zbek milliy o'yinni yana qaytarish, hamda milliy an'ana o'yinlarmizni bolalar onggiga singdirishdir.

Ma'lumki, bolalar yoshi ulg'aygan sayin ma'naviy o'yinlarga ehtiyojlari ham kuchaya borgan. Boshda bolalar ma'naviy ehtiyojga xos bunday o'yinlami kattalarning o'zları ijod etishgan. Tez aytishlar va topishmoqlar aslida xuddi shu kattalar ijodkorligi namunalari bolgan ma'naviy (so'z) o'yinlaridir. Davrlar o'tishi va ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot taqozosiga ko'ra bu o'yinlar bolalar ma'naviy mulkiga aylanib bormoqda. Kattalarning

bunday ijodiy ta'siri bolalarning o'zlaridagi ijodiy imkoniyatlami harakatga sola bordi. Natijada ular xilma-xil shakl va mundarijaga ega talay ma'naviy (so'z) o'yinlarni ijod eta oladilar. Chandishlar va guldur-guplar — bolalarning o'zлari bevosita ijod qilgan ana shunday folklor hodisalarini hisoblanadi. Xullas, bolalar kattalardan o'rganganlari ta'sirida o'zлari ham topishmoqlar to'qib va yechib — topqirlikni mashq qilganlar, shu jarayonda narsa va hodisalar haqida fikr yuritishni, ulaming muhim xususiyatlarini sezgirlik bilan fahmlay bilishni o'rganganlar, tez aytishlar yordamida nutqlaridagi g'alizliklarni bartaraf etib, so'zlearning to'g'ri talaffuzini, so'zdagi har bir tovushning o'z o'rnidagi ohangi va ma'no tovlanishlarini his qilishga uringanlar; til, so'z, tovush, ma'no va ohang ustidagi mashqlarini yanada takomillashtirib, yashirin tilni o'ylab topganlar, bahri bayt o'ynab o'z xotiralarini chiniqtirishga urunganlarlar, nihoyat, bir-birlarini so'zda chandib, so'zlearning o'zaro ohangdoshlikdagi ilmoqdar va nishdar ma'nolarini anglashga intilganlar.

Telefondagi mashina poygasi, pabji, o'yinlarga suqlanib qaraymiz-u, lekin o'zimizdagи o'yinlarni xayolga ham keltirmaymiz. Turli-tuman musobaqalar o'yinlarini televizor va telefonligi miriqib tomosha qilamiz-u, lekin o'zimizning milliy qadimiy o'yinlarni allaqachon eslamay qo'yganmiz. Balki oldingdan oqayotgan suvning qadri yo'q, degani shu bo'lsa kerak-da!

Xayriyatki, istiqlol milliy qadriyatlarga yangicha qarash, ularni qayta baholash, xalqqa o'zligini anglatishga xizmat ettirish talabini kun tartibiga qo'ydi. O'zbek xalqining asrlar davomida yaratilib va turmushda sinalib, qo'llab kelinayotgan an'anaviy milliy o'yinlarga munosabatini ham o'zgartira boshladi. Ularni to'plashga, ilmiy-tarbiyaviy xususiyatlarini umumlashtirishga, shu asosda istiqlol kun tartibiga qo'ygan sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirish dasturida kengroq qo'llashga zaruriyat tug'dirdi. Boshlang'ich sinf "Oqish savodxonligi" darsliklarida ham yo'qolib hamda unut bo'lib ketayotgan milliy o'yinlarmiz haqida ma'lumotlar berilib ketmoqda. Xalq o'yinlar, xalq qo'shiqlari va bolalar folklorligini bolalar uchun ahamiyati shundan iboratki, zehnlilikka, ijodkorlikka, topqirlikka, ahillikka, birdamlilikka, chaqqonlilikka o'rganadilar, hamda bizlar buyuklar avlodlar ekanligimiz haqida bilib oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bolalar adabiyoti va folkori. Mamasoli Jumayev O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti Toshkent-2006
2. Bolalar adabiyoti va folklor Oxunjon Safarov, Bashorat Jamilova,Nigora Safarova "Turon zamin ziyo" nashriyoti Toshkent-2015

3.Ona tili o'qitish metodikasi. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'Idosheva, Sharoljon Sariyev "Noshir" nashriyoti Toshkent-2009

4. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf darslik 1-qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. "Respublika maqsadli kitob jamg'armasi tomonidan chop etildi" Toshkent- 2021

5. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf darslik 2-qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sadullo Quronov, Shokir Tursun. "Respublika maqsadli kitob jamg'armasi tomonidan chop etildi" Toshkent-2021

6. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf darslik 1-qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun "Respublika maqsadli kitob jamg'armasi tomonidan chop etildi" Toshkent-2021

7. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf darslik 2-qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. "Respublika maqsadli kitob jamg'armasi tomonidan chop etildi" Toshkent-2021

8.Umumi pedagogika. N.Atayeva, F.Rasulova. M.Salayeva. S. Hasanov. «Fan va texnologiya» nashriyoti,Toshkent-2012

9.Umumi pedagogika. A. Musurmanova va boshqalar "O'z kitob savod nashriyoti» o'quv qo'llanma. Toshkent-2020

10. Xalq og'zaki poetik ijodi. Omonulla Madayev, T. Sobitova Toshkent-2010

11.O'qish kitobi 4-sinf darslik. S. Matchinov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z. Dolimov «Yangiyo'l poligraf servis» Toshkent- 2017.